

MA'MURIY SUDLAR TOMONIDAN AVTOMOBIL TRANSPORTIDA YO'LOVCHI TASHISH YO'NALISHLARIDA OCHIQ TENDERLAR O'TKAZISH JARAYONLARIDA DASTLABKI HIMOYA CHORALARINI QO'LLASH MASALASI

Ostonov Asror Abdulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22824569>

Received: 12 September 2026 • Accepted: 17 September 2026 • Published: 18 September 2026

Annotatsiya:

Mazkur tezisdan avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida ma'muriy sudlar tomonidan qo'llanilayotgan dastlabki himoya choralari instituti tahlil qilingan. Muallif amaliyotda ayrim ma'muriy sudlar tomonidan asossiz ravishda dastlabki himoya chorasini qo'llanilishi natijasida yo'lovchilarning erkin harakatlanish huquqi cheklanishi, tashuvchilarning to'lov qobiliyatsizligi va kredit qarzdorligi kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelayotganini statistik ma'lumotlar asosida asoslab bergan. Ish yakunida ma'muriy sud organlari tomonidan dastlabki himoya chorasini ko'rib chiqishda ishga aloqadorlik masalalarini sinchkovlik bilan o'rganish hamda jamiyat manfaatlarini ustuvor deb hisoblash zarurligi bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar:

ochiq tender, yo'lovchi tashish, dastlabki himoya chorasini, ma'muriy sud, tender g'olibi, transport xizmati, erkin harakatlanish huquqi

Bugungi kunda avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlarida ochiq tenderlar o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish, tender bo'yicha takliflarni baholash va g'olibni aniqlashda inson omilini minimallashtirish hamda idoralararo elektron tizimlarni integratsiya qilish orqali ushbu tizimni raqamlashtirish maqsadida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, transport xizmati ko'rsatishni tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, mulkchilikning barcha shakllaridagi tashuvchilar uchun raqobat muhitini hamda qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, yo'lovchilarga sifatli hamda xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish maqsadida avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish tizimi yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrda 738-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan (keyingi o'rinlarda - Nizom) tashuvchilar tomonidan yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashish uchun o'tkaziladigan ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilangan.

Ma'lumot uchun: 2024-yil davomida shahar, shahar atrofi, shaharlararo hamda viloyatlararo yo'nalishlarda jami 3 114 ta tender tashkillashtirilgan bo'lib, shundan 211 tasida tender o'tkazilgan va 1 033 ta tender g'oliblari aniqlangan, 2025-yil davomida shahar, shahar atrofi,

shaharlararo hamda viloyatlararo yo'nalishlarda jami **2 985 ta** tender tashkillashtirilgan bo'lib, shundan **200 tasida** tender o'tkazilgan va **1000 ga** yaqin tender g'oliblari aniqlangan,

Nizomga asosan yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini birlashtirish yuzasidan ochiq tenderlar tashkil etish va o'tkazish **4 bosqichda** amalga oshirilib, har bir tender yo'nalishi yakuniga yetgunga qadar umumiy muddat **50 kunni** tashkil etadi.

Yo'nalishlarni birlashtirish yuzasidan ochiq tenderlarni elektron tarzda o'tkazishdan maqsad, qisqa vaqt davomida tegishli yo'nalishlarni ishonchli va raqobatbardosh tashuvchilarga birlashtirish orqali yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatishdan iborat.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tenderlarni tashkil etish va o'tkazish jarayonida ishtirokchi tadbirkorlik subyektlari o'rtasida raqobat natijasida baholash natijalari, g'olibni aniqlash mezonlari, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklar va boshqa masalalar yuzasidan nizolar kelib chiqmoqda.

Bunday nizolar sud yurisdiksiyasiga ko'ra ma'muriy sudlarga taalluqli hisoblanadi. Ushbu sud amaliyotida dastlabki himoya chorasini instituti markaziy ahamiyat kasb etadi.

Xususan, ma'muriy sudlar tomonidan nizo predmetining yakuni ko'rib chiqilgunga qadar ya'ni, sud muhokamasi yakunlangunga qadar ma'muriy organning muayyan harakatlarini (tender e'lonlari, tender g'olibi bilash shartnoma rasmiylashtirish) to'xtatib turish yuzasidan dastlabki himoya chorasini qo'llash bo'yicha ayrim ma'muriy sudlar tomonidan asossiz qarorlar chiqarilishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, ma'muriy sud organlari tomonidan **2024-yilda** tender yo'nalishlari tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq dastlabki himoya choralari bo'yicha jami **34 ta** ish ko'rib chiqilgan bo'lib, mos ravishda Farg'ona viloyatida **14 ta**, Qoraqolpog'iston Respublikasida **20 tani** tashkil etgan bo'sa, 2025-yilda esa ushbu ko'rsatkich biroz pasaygan.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 92-98-moddalarida ma'muriy sud organlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bo'yicha ma'muriy sud ishlarini yuritishda dastlabki himoya choralari ko'rish va bekor qilish vakolatlariga ega ekanligi belgilangan.

Mazkur dastlabki himoya choralari ijtiro etish natijasida quyidagi salbiy holatlar kelib chiqmoqda:

birinchidan, tenderda e'lon qilingan yo'nalishlarni to'xtatib turilishi va tashuvchisiz qolib ketishi oqibatida yo'lovchilar manziliga belgilangan vaqtda, qulay narxlarda yetib borish imkoniyatidan mahrum bo'lib, qimmat narxlarda yo'nalishsiz taksilarda harakatlanishga majbur bo'lmoqda.

Ma'lumot uchun: Farg'ona viloyati kesimida 2024-yil davomida ma'muriy sud organlari tomonidan dastlabki himoya chorasini qo'llanilgan yo'nalishlarning umumiy masofasi **418,4 kmni** tashkil etib, ushbu yo'nalishlarda kunlik **43 850 nafar** yo'lovchi tashiladi.

Ya'ni, ayrim sudlar tomonidan dastlabki himoya choralari qo'llashda ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to'la va xolisona tekshirib chiqmasligi natijasida fuqarolarning erkin harakatlanish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32-moddasida qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan **har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish**, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

ikkinchidan, dastlabki himoya chorasini qo'llanilgan tender g'olibi bilan tender shartnomasini o'z vaqtida rasmiylashtirmaslik tadbirkorlik subyektlari tomonidan kredit shartlari asosida xarid qilingan avtobuslarning bo'sh turib qolishiga olib kelmoqda, bu holatlar esa tashuvchilarda to'lov qobiliyatsizligini va kredit qarzdorliklarini vujudga keltirmoqda.

Ma'muriy sud organlari tomonidan shahar, shahar atrofi, shaharlararo hamda viloyatlararo yo'nalishlarda tender tashkil etish va o'tkazish ishlarini yuritish jarayonida dastlabki himoya chorasini ko'rib chiqishda quyidagi masalalarni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

birinchidan, dastlabki himoya choralari qo'llash bo'yicha arizalarni ko'rib chiqishda ish holatlarini hamda sudga ariza kiritgan shaxslarning ishga aloqadorlik masalalari sinchkovlik bilan o'rganib chiqilishi, boshqa tadbirkorlik subyektlarining qonun bilan qo'riqlanadigan

manfaatlariga putur yetkazmaslik choralari ko'rish maqsadida tender yo'nalishlarini tashkil etgan vakolatli organ vakillarini va tender g'olibi bo'lgan tashuvchilarni ishga jalb qilish orqali ish yakuni bo'yicha chiqariladigan sud hujjatlarining oqibatlari baholanashi lozim.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 19.05.2018-yildagi "Ma'muriy ishlarni ko'rishda birinchi instansiya sudi tomonidan protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 15-son qarori 14-bandida ma'muriy ish qo'zg'atilgunga qadar sud **dastlabki himoya choralari qo'llashga haqli emasligi nazarda tutilgan.**

Ikkinchidan, dastlabki himoya choralari qo'llash bo'yicha ishga aloqador barcha holatlarda jamiyat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni tender yo'nalishlarida tashuvchilar tomonidan tashiladigan yo'lovchilarning kunlik sig'imi, bir joydan ikkinchi joyga harakatlanishi uchun boshqa transport vositalarining mavjud yoki mavjud emasligi, ushbu transport vositalari mavjud bo'lganda ular tomonidan taklif etilayotgan tashuv narxining muqobilligi o'rganib chiqilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent, 2023-yil tahriri. (32-modda).
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. — Toshkent, 2018. (92–98-moddalar).
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi 738-son "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 19-maydagi 15-son "Ma'muriy ishlarni ko'rishda birinchi instansiya sudi tomonidan protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024–2025-yillar davomida ma'muriy sud organlari tomonidan ko'rib chiqilgan dastlabki himoya choralari bo'yicha statistik ma'lumotlari.

THESIS INFORMATION IN OTHER LANGUAGES

РУССКИЙ

Аннотация: в данных тезисах анализируется институт мер предварительной защиты, применяемых административными судами в процессе организации и проведения открытых тендеров по маршрутам пассажирских перевозок автомобильным транспортом. Автор на основе статистических данных обосновывает, что необоснованное применение отдельными административными судами мер предварительной защиты приводит к таким негативным последствиям, как ограничение права пассажиров на свободное передвижение, неплатёжеспособность перевозчиков и рост их кредитной задолженности. В заключение работы предлагается при рассмотрении мер предварительной защиты тщательно изучать вопросы причастности к делу и отдавать приоритет общественным интересам.

Ключевые слова: открытый тендер, пассажирские перевозки, мера предварительной защиты, административный суд, победитель тендера, транспортные услуги, право на свободное передвижение

ENGLISH

Abstract: This thesis examines the institution of preliminary injunctive measures applied by administrative courts in the process of organizing and conducting open tenders for passenger transportation routes by road transport. Drawing on statistical data, the author demonstrates that the unjustified application of preliminary protective measures by certain administrative courts leads to negative consequences, including restrictions on passengers' right to freedom of movement, carrier insolvency, and increased credit indebtedness. The paper concludes with

proposals for administrative courts to thoroughly examine case-relevance issues and to prioritize public interest when reviewing requests for preliminary injunctive relief.

Keywords: open tender, passenger transportation, preliminary injunctive measure, administrative court, tender winner, transport services, freedom of movement